



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TALABALARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MODEL

Turdiyev Jamshid Rashidovich

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, boshlig'i o'rinbosari

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani misolida talabalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, o'qitish metodlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, mavjud o'quv dasturlari, standartlar va dars jarayonlari tahlili asosida talabalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda pedagogik modellashtirish metodologiyasi asosida talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, unda maqsad, pedagogik jarayon va natija bloklarining o'zaro bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Mazkur model ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni samarali tashkil etish, talabalarning ijtimoiy faoliyati, kreativ fikrlashi va kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik modellashtirish, oliy ta'lim, "O'zbekistonning eng yangi tarixi", ta'lim metodlari, pedagogik texnologiyalar, kreativ fikrlash, ta'lim jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik tizim, didaktik yondashuv.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА

Турдиев Джамшид Рашидович

Ташкентский институт менеджмента и экономики, заместитель руководителя

Аннотация

В данной статье анализируются теоретико-методологические основы формирования социальной компетентности студентов в высших учебных заведениях на примере учебной дисциплины «Новейшая история Узбекистана». В исследовании рассматривается применение компетентностного подхода в образовательном процессе, педагогические условия развития социальных компетенций, а также роль методов обучения и современных педагогических технологий. Кроме того, на основе анализа действующих учебных программ, образовательных стандартов и практики проведения занятий выявлены основные проблемы формирования социальной компетентности студентов и научно обоснованы пути их решения. В работе разработана модель развития социальных компетенций студентов на основе методологии педагогического моделирования, в которой показана взаимосвязь целевого, процессуального и результативного блоков. Предложенная модель способствует эффективной реализации компетентностного подхода в образовательном процессе и направлена на развитие социальной активности, креативного мышления и профессиональной подготовки студентов.

Ключевые слова: социальная компетентность, компетентностный подход, педагогическое моделирование, высшее образование, Новейшая история Узбекистана, методы обучения, педагогические технологии, креативное мышление, образовательный процесс, профессиональная подготовка, педагогическая система, дидактический подход.

MODEL FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL COMPETENCE BASED ON AN INDIVIDUALIZED APPROACH

Jamshid Rashidovich Turdiyev

Tashkent Institute of Management and Economics, Deputy Head

Abstract

This article analyzes the theoretical and methodological foundations for developing students' social competence in higher education institutions using the course "Modern History of Uzbekistan" as an example. The study highlights the application of a competency-based approach in the educational process, the pedagogical conditions for the development of social competencies, as well as the role of teaching methods and modern pedagogical technologies. In addition, based on the analysis of existing curricula, educational standards, and the current teaching practices, the article identifies the main problems encountered in the formation of students' social competence and scientifically substantiates ways to overcome them. The research develops a model for the development of students' social competencies based on the methodology of pedagogical modeling, demonstrating the interconnection between the goal, pedagogical process, and outcome blocks. The proposed model contributes to the effective implementation of the competency-based approach in the educational process and promotes the development of students' social activity, creative thinking, and professional readiness.

Keywords: social competence, competency-based approach, pedagogical modeling, higher education, Modern History of Uzbekistan, teaching methods, pedagogical technologies, creative thinking, educational process, professional training, pedagogical system, didactic approach.

Oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fani misolida talabalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishning amaldagi holati mavjud o'quv dasturlari, standartlar, fanlar majmuasi va "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanining amaldagi dars jarayoni asosida o'rganiladi. Professor-o'qituvchilarning metodik yondashuvlari, talabalarning ijtimoiy faolligi, auditoriya va auditoriyadan tashqari jarayonlarda kompetentlik rivojlanishining tendensiyalari tahlil qilinganda qator kamchiliklar aniqlanganligining guvohi bo'lamiz.

Amaldagi ta'lim jarayonida ushbu kompetentlikni rivojlantirishda uchrayotgan muammolar, kamchiliklar (faol metodlardan yetarlicha foydalanilmasligi, individual yondashuvning sustligi, baholash mezonlarining noaniqligi) ilmiy asosda aniqlanib, unga ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi.

Materiallar va metodlar. Zamonaviy ta'lim paradigmasi uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha bosqichlarining didaktik imkoniyatlarini uyg'unlashtirish xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim hamda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimi o'rtasidagi integratsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda keltirilishicha, kompetensiya, kompetentlik o'ta murakkab, ko'p funksiyali va ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalar bo'lib, ularning talqinlari hajmi, tarkibi, ma'no va mantiq mundarijasi jihatidan turli-tumandir. Adabiyotlarda "samaradorlik", "muvaffaqiyatlilik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "bilimlilik", "uddalash", "sifat", "miqdor", "anglaganlik" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda[1]. Rivojlangan mamlakatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Shveysariya, Germaniya, Malayziya, Kanadaning mutaxassilar tayyorlash bilan bog'liq tajribasi shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'limning asosiy vazifasi talabalarda tanlangan mutaxassislikning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda intellekt va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat bo'lib, mazkur vazifani bajarish

asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi ta'minlanadi[2]. Bu esa, oliy ta'lim bitiruvchilaridan ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Ijtimoiylikni kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish birmuncha samaralidir. Sababi, kompetensiyaviy yondashuv mohiyati hayotiy zarurlatlardan kelib chiqadi.

Asosiy qism. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni inkor qilmagan holda ulardan biroz farqlanadi, birinchidan, kompetensiya ularning majmuaviy ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, bilim olish albatta uning kelajak faoliyatda qo'llanilishi yoki shaxsning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu yondashuvlar asosida bugungi kundagi kadrlar sifati tayyor bilim olish emas, uni hayotiy faoliyatda qo'llay olish darajasi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shunga ko'ra, ta'limdagi yondashuvlar va demak, o'qitish metodlari ham o'zgaradi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitish metodlarni tanlash, modellastirish, konstruksiyasini tuzish faoliyat strukturasi, funksiyasini belgilash kabilarni qamrab oladi.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan olib qaralsa, tarix fanidan talabalarning egallashi kerak bo'lgan ko'nikmali maqsad kompetentli, mas'uliyat his etuvchi, o'z kasbining ustasi sanalgan mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak muhandisning kasbiy faoliyatini aniq va o'z vaqtida bajarishga qodirlik va shaylikni kafolatlaydi [3]. Shu bilan birga ta'limdagi turli integrativ yondashuvlar metodologiyasi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini metodologiya mazmunining alohida komponentlariga bunga qadar xos bo'lmagan, integratsiyaga kirishuvchi yangi xossa, sifat va belgilarni o'zida jamlagan yaxlitlikni tushunishga imkon beradi.

Ta'lim oluvchilarning ta'limiy kompetensiyalarni shakllantirishda ularning qiziqishi, ehtiyojini hisobga olish zarurligi [4], buning uchun esa, pedagogik tashxis o'tkazish lozimligini ta'kidlaydi. Pedagogik tashxis yo'nalishlari didaktik tashxis (bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligi), ruhiy-pedagogik tashxis (ta'lim subyektlarining ehtiyoji, shaxsiy xususiyatlari), ijtimoiy-pedagogik tashxis (oila, ta'lim muassasasi, mahalla) boshqarish bo'yicha tashxis (o'quv-tarbiya jarayoni, pedagogik jamoa salohiyati, texnika vositalar) kabi tartibda tavsiya etiladi. Shuningdek, talabalar o'rtasida o'tkazilgan tashxis to'laqonli bo'lishi uchun qayta aloqa bo'lishi va baholash jarayoni doimiy ravishda muhokama qilinishiga hamda o'tkazilgan tashxis natijasi oldingisi bilan solishtirilishi va ijobiy(salbiy) o'zgarishlar e'tirof etilmog'i lozim.

Ta'lim strategiyalarini belgilash, talabalarning ijtimoiy-shaxsiy va tizimli miqyosda rivojlanishiga qaratilgan kompetentlik yondashuvlarni o'quv jarayonining sifatini ta'minlashga asos bo'ladi. Tizimli yondashuvning umumnazariy asoslari bir qator izlanuvchilar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ularda fan mazmuni hamda ilmiy izlanishning umumiy yo'nalishini aniqlashda mazkur yondashuvga yetakchi o'rin berishadi [5]. Shu bilan birga, tadqiq etilayotgan obyekt komponentlarning muayyan yo'sinda tashkil topgan yaxlit bir aloqasi sifatida ko'riladi.

Muhokama va natijalar. Kompetensiya tushunchasi tarixi va taraqqiyoti bosqichlarida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bosh mezon hisoblanadi. Tayanch kompetensiyalar fanga oid yoki ijtimoiy kompetensiyalar hosilasidan iborat bo'ladi. Shu asosda bu yondashuvlardan o'qitish metodlarini tanlash tamoyillari kelib chiqadi. Bizning talqinimizda "kompetensiya – har bir shaxsning o'zlashtirilgan yoki yuqtirilgan qobiliyatlarining ma'lum sohada samarali namoyon bo'lishidir". Kasbiy yoki hayotiy faoliyatga tayyorlash esa, ta'lim tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talabdir. Shu o'rinda kompetentlik tushunchasining bir necha: o'quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal tajribalar, tegishli kompetensiyalarga ega bo'lishlik kabi talqinlarda beriladi. Bizning fikrimizcha, "kompetentlik shaxsning ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirgan o'zini tuta olish, jamoaga moslashish va farosatli muloqatga kirisha olish hamda belgilangan ijtimoiy talablarga moslasha olish qobiliyatidir".

Shunday qilib kompetensiyani jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi

bo'lib, ularning ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi yoki mintaqadagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi, degan fikrga keltirish mumkin. Bunda muhim omil talabalarning kreativ fikrlash ko'nikmalari hisoblanadi, bu "tajribadan biror foydali ma'lumot chiqarib olish", "muammoni yecha olish", "oldingi va yuz berayotgan voqealar orasidagi mantiqiy aloqani anglash", "yangi yechimlarni topa olish" kabi mazmun beradi. Ta'lim kompetensiyalari mazmuni va ta'limdagi umumiy funksiyasini ma'lum tarkibiy komponentlarga ajratish mumkin [6]:

- real faoliyat ko'rsatadigan obyektlar doirasi;
- kompetensiyaning ijtimoiy-amaliy bog'liqligi (uning jamiyat uchun nima sababdan kerakligi);
- shaxsga qo'yilgan talablar (nima sababdan o'quvchi kompetentli bo'lishi kerak?);
- talabalarning faoliyat ko'rsatishi uchun kerak bo'ladigan minimal tajribasi (o'qitish bosqichlari bo'yicha);
- indikatorlar – talaba kompetentligi (o'qitish bosqichlari bo'yicha) darajasini aniqlash uchun o'quv va nazorat-baholash topshiriqlar saviyasi.

Talabalarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish, rivojlantirish hamda uni baholash muhim pedagogik jarayon hisoblanadi va bunda ta'lim rivojlanishining hozirgi bosqichida modellashtirish asosiy ahamiyatga ega. Ta'lim paradigmalarning tubdan o'zgarishi natijasida innovatsionon pedagogik tizimlarni modellashtirishga yangi talablar paydo bo'ldi.

Eng umumiy ma'noda "model" (fransuzcha modele-namuna, prototip) qandaydir tizimning tasvirini anglatadi [7]. Pedagogikada keng qo'llaniladigan model atamasi ko'plab ta'riflarga ega bo'lib, o'rganilayotgan obyektni ko'rsatish yoki takrorlash orqali uning o'rnini bosa oladigan va obyekt to'g'risida yangi ma'lumot beradigan aqliy ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim yoki biror faoliyatning algoritmi, funksiyalarini takrorlaydigan elementlar tizimi sifatida baholanadi [8].

Modelni yaratish jarayoni I.T.Frolov tomonidan tahrir qilingan falsafiy lug'atda modellashtirish "obyekt xususiyatlarini ularni o'rganish uchun maxsus yaratilgan boshqa obyektga takrorlash..." deb talqin qilinadi. Modellashtirish zamonaviy ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning yetakchi usullaridan biridir. Pedagogik modellashtirish deganda, E.V.Yakovlev va N.O.Yakovlevaga asosanib, biz mavjud pedagogik tizimning xususiyatlarini pedagogik model deb ataladigan maxsus yaratilgan ob'ektda aks ettirishni tushunamiz. Pedagogika fani va amaliyotida "modellashtirish"ning metodologik qiymati o'quv faoliyatining mazmun tomonini tavsiflaydi va faoliyatning maqsadlari, vositalari, usullari va shakllarida paydo bo'lgan yangilikni aks ettiradi. Bunday holda modellashtirish pedagogik faoliyatning alohida va o'ziga xos turi bo'lib, ilmiy tadqiqot, prognozlash, loyihalash, rejalashtirish, dasturlash, ijtimoiy menejment bilan chambarchas bog'liq. Bizningcha, "model-mavjud pedagogik tizim xususiyatlari majmuasi va belgilangan ketma-ketliklikdir".

Pedagogik tizimlarni modellashtirish avval ilg'or tasavvurlar yordamida (model shaklida), so'ngra uni amalga oshirish orqali yangi pedagogik, didaktik, metodik va texnologik ta'lim tizimlarini maqsadga muvofiq yaratishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, mavjud tajribani o'rganish emas, balki nazariy tadqiqotlar asosida hali mavjud bo'lmagan narsalarni yaratish kerak. Tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik tizimlarning innovatsionon modellarini yaratish zarurati va ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida pedagogik modellashtirish sohasidagi nazariy va amaliy masalalarni ishlab chiqish o'rtasida ziddiyat mavjud. Bizning yondashuvda ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasining tarkibiy - funksional modeli ta'lim turini, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, davlat va ijtimoiy buyurtmani samarali bajarish maqsadida ta'lim muassasasi oldidagi vazifalarni hisobga olgan holda yaratilgan. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan ijtimoiy kompetentlik modeli ta'lim subyektlari, ijtimoiy sherikliklar hamkorligini ta'minlashda funksional vazifalarni amalga oshiriladi.

Odatda, amaliyotchilar modellashtirilayotgan obyektlarga va modellashtirish jarayonining o'ziga bo'lgan zamonaviy talablarni hisobga olmagan holda mavjud tajriba asosida harakat qiladilar. Shunga asoslanib, pedagogik obyektlarni modellashtirish tartibini uning mohiyati, roli va vazifalaridan boshlab ochib berish kerak. Pedagogik vazifani modellashtirish [9] ushbu jarayonni yaxlit modellashtirish uchun zarur va yetarli bo'lgan boshqa mexanizmlar orqali ko'rib chiqishni talab qiladi. Ushbu jarayonning komponentini tashkil etuvchi elementi inson faoliyatining ajralmas tuzilishi bo'lib, u quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- dastlabki vaziyatni tahlil qilish;
- maqsadni qo'yish;
- rejalashtirish (faoliyat dasturini tayyorlash);
- dasturni amalga oshirish (ijrochi komponent);
- faoliyat va olingan natijani tahlil qilish (refleksiv va baholovchi komponent).

Boshqa jarayonlar: prognozlash, loyihalash, modellashtirish jarayonini amalda to'liqroq asoslash uchun kognitiv vositalar. Modellashtirish modellarni yaratish orqali pedagogik voqelikni bilish vositasi sifatida qo'llaniladi. Bunda model obyektlar nusxasining "ideal" namunasi bo'lib xizmat qiladi va amaliy (obyektning amalda muhim xususiyatlaridan foydalanilganda), kognitiv (obyekt o'quv vazifalarini bajarganda (masalan, maketlar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar), tayyor bilimlarni o'zlashtirish muvaffaqiyatini ta'minlash, tadqiqot (obyekt yangi qiymatini olish uchun modellashtirilganda) kabi funksiyalarni bajaradi.

Tadqiqotimizda kompetentli yondashuvga asoslangan munosabatlar nuqtai nazaridan kelib chiqib, maxsus yaratilgan psixologik-pedagogik sharoitlar ta'sirida jarayon, hodisaning tabiiy, izchil o'zgarishi bo'lgani uchun ham u yaxlitligi, murakkabligi ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining umumdidaktik tavsifi nazariy yondashuvlar bayonini o'z ichiga oladi. Ilmiy tadqiqotning metodologik yo'nalishlaridan biri bo'lgan kompetentli yondashuv talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonini uzviy pedagogik tizim, o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida ko'rib chiqish, ta'lim jarayonini tashkil etish xususiyatlarini izohlash hamda tegishli kompetensiyani shakllantirish modelini takomillashtirishning eng samarali yo'llarini aniqlash imkonini berdi. Ma'lumki, kompetentli yondashuv ta'lim jarayoni natijasi, shakllanganlik mezonlari va ko'rsatkichlarini, baholash metodlarini aniqlash va tavsiflash V.Xutmaxerning ta'kidlashicha, birinchi navbatda amaliy, faoliyatli, shaxsiy (motivatsion, irodaviy va boshqalar) sifatlar va ta'limning gumanistik qadriyatlari bilan bog'liq [10]. Uning mohiyatini to'rtta asosiy mezonlar (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, shaxsiy) tashkil qiladi. Shuningdek, tizimli (jarayonda sinergetik aloqa, omillarni hisobga olish) yondashuv, shaxsiy-faoliyatli (o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi, faoliyatning shaxsiy va subyektiv jihatlari, shaxsning qiziqish va qobiliyatlariga individual yondashuv) yondashuv ta'lim jarayonini uning ishtirokchilarining shaxsiy pozitsiyalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shunday qilib, pedagogik modellashtirish tamoyillari modellashtirishning barcha asosiy jihatlarga, ya'ni uning mazmuni, usullari va maqsadlariga muvofiq va pedagogik jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishiga ta'sir qiluvchi asosiy qoidalar tizimi bo'lishi kerak. Bular qatoriga tizimlilik (ta'lim tizimida pedagogik jarayonni loyihalash, subyektlar munosabati sintezi) tamoyili, prognostik (obyektning ehtimoliy hukmi, ijtimoiy va iqtisodiy sohalar istiqbollari, yangi g'oyalar) tamoyili, universallik (pedagogik prognozlash va dizayn, nazariyaning ijtimoiy qiymati, umuminsoniylik) tamoyili, dasturlashtirilgan nazorat (ta'limning uzoq muddatli rivojlanishini bugungi kun nuqtai-nazaridan belgilash, axborot va nazorat qilish) tamoyili asosida pedagogik ta'lim tizimlarining tuzilishi va mazmunini loyihalash imkoninini beruvchi tamoyillarni kiritish mumkin. Jarayonni modellashtirish tamoyillari real obyektlar va ularning kichik tizimlarining modellarini ishlab chiqishni ta'minlaydi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan model maqsad, pedagogik-jarayonli va natija bloklardan tashkil topgan bo'lib, mazkur bloklar bir-biri bilan uzviy bog'langan hamda bashoratlash imkonini beradi.

Modelning pedagogik-jarayonli bloki metodologik yondashuvlar, pedagogik shart-sharoitlar, O'zbekiston tarixi fanini o'qitishning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalarini o'z ichiga oladi. Natija bloki pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezonlari va talabalarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllanganlik darajalaridan tashkil topgan. Bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish modelini samarali loyihalashtirish asosiy sharti - ta'lim muassasasida o'quv-metodik muhit resurslaridan foydalanishdir. Ta'lim muassasasi resurs imkoniyatlarini hisobga olgan holda talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining samaradorligi, tizimli faoliyat yondashuviga, o'qitishning zamonaviy texnologiyalariga tayanilishi bilan belgilanadi.

Natija blokida ijtimoiy kompetensiyani baholash mezonlari va darajalari taqdim etadi. Adabiyotda mezonlar muammosiga turli yondashuvlar belgilangan, odatda ular obyektning qabul qilingan namuna bilan munosabatini o'rnatish uchun biror narsani taqqoslash yoki ta'kidlash uchun namuna bo'ladigan har qanday standartlar, ko'rsatkichlar, belgilar, xususiyatlar, sifatlarni hisobga oladi. Shu bilan bir qatorda, tarix fanini o'qitishning didaktik shart-sharoitlari pedagogik-psixologik imkoniyatlari, tamoyillari va tashkiliy asoslarini ishlab chiqish, mahalliy va xorijiy ilmiy doiralarda fanni o'qitishning yangi yondashuvlarini qo'llash va uning metodologiyasini izlash zamonaviy o'qitish texnologiyalariga o'tishni anglatadi. Tarix o'qitish metodikasi talabalarning ta'limning an'anaviy va noan'anaviy metod va usullari, shakl va vositalarini, ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik asoslari bilan qurollantirib, tarix ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tarix o'qitish metodikasidan egallangan bilimlarni o'quv jarayonida muvaffaqiyatli foydalanish, bunda esa bo'lajak muxandis yoki o'qituvchining o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda metodik faoliyatni tashkil etish, metodik tavsifdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Xulosa

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida "O'zbekistonning eng yangi tarixi" fanini o'qitish jarayonida talabalarda ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatlarini ham rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni talabalarning ijtimoiy faolligi, kreativ fikrlashi, jamoada ishlash ko'nikmalari hamda ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, amaldagi ta'lim jarayonida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishda qator muammolar mavjud. Jumladan, faol o'qitish metodlaridan yetarlicha foydalanilmasligi, individual yondashuvning sustligi, baholash mezonlarining aniq tizimlashtirilmaganligi kabi kamchiliklar ushbu jarayon samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, talabalarning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni kuchaytirish hamda ijtimoiy kompetentlikni baholash mezonlarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish modeli maqsad, pedagogik-jarayonli va natija bloklaridan iborat bo'lib, u ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish hamda kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, talabalarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni kompetensiyaviy, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Bu esa oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy jihatdan faol, mas'uliyatli va raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berns M. Contexts of competence: social and cultural considerations in communicative language teaching. – New York: Plenum, 1990. -185 p. [http://murabbiy-press.uz/content/talim_mazmunini_yangilash - davr talabi](http://murabbiy-press.uz/content/talim_mazmunini_yangilash_-_davr_talabi)).
2. Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari / Monografiya. – Toshkent.: Fan, 2004. -B.73-80.
3. Митина Л.М. Личностное и профессиональное развитие человека в новых социально-экономических условиях / Л.М. Митина // Вопросы психологии. - 1997. - №4.
4. Усаров Ж.Э., Физика ўқитиш жараёнида ўқувчиларнинг фанга оид ва таянч компетенцияларини ривожлантириш: Пед.фан.док. ...дис. Тошкент: 2019.
5. Бугакова Н.Ю. Научные основы развития инженерной проектной деятельности студентов технического вуза: На примере общепрофессиональных дисциплин: Дис. ... доктора пед. наук: 13.00.08 / Бугакова Нина Юрьевна. – Калининград: 2001. – 242 с.
6. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. // Ўқув-услугий қўлланма (I қисм). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2015. -160-б; -10-20-б.
7. Авлиёқулов Н.Х. Ўқитишнинг модул тизими ва педагогик технологияси амалий асослари. Услугий қўлланма. – Бухоро: 2001. – 49 б.
8. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. М., 2004. - 175 б.
9. Голиш Л.В. Проектирование и планирование педагогических технологий // серия Современные технологии обучения. Изд. 2-е. –Ташкент: ТГЭУ. 2010. - 151 с.
10. Галямина К.Г. Проектирование государственных образовательных стандартов высшего профессионального образования нового поколения с использованием компетентностного подхода // Труды методологического семинара «Россия в Болонском процессе: проблемы, задачи, перспективы» / К.Г. Галямина. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2005.